

**MAHALLIY IXTISOSLASHTIRILGAN SAN'AT MAKTABLARINING O'QUV  
JARAYONIDA XIVA NAQQOSHLIK MAK TABI AN'ANALARIDAN  
FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI**

**Ro'zmetov Quvondiq Shonazarovich**

(*UrDU, San'at kafedrasi katta o'qituvchisi;*)

**Bekchanov Farhod**

(*UrDU, Amaliy san'at ta'lif yo'nalishi, 4-kurs talabasi*)

**Annotatsiya.** Maqolada mahalliy ixtisoslashtirilgan san'at maktablarining o'quv jarayonida Xiva naqqoshlik maktabi an'analaridan foydalanish, Xiva naqqoshlik san'ati uslubini o'rgatishdagi muammoli vaziyatlar, ularga yechimlar topish bosqichlari haqidagi ma'lumotlar berildi.

**Kalit so'zlar.** Mahalliy ixtisoslashtirilgan san'at maktablari, Xiva naqqoshlik san'ati uslubi, naqsh elementi, gul, bargli gul, ko'p bargli gul, madoxil, qo'chqor shoxi naqsh elementi, ranglash.

Mahalliy ixtisoslashtirilgan san'at maktablariga kelguniga qadar umumiyo o'rta ta'lif maktablarida ham naqqoshlik san'ati namunalarini loyihalash va ijodkorlik faoliyatini shakllantirish nazarda tutilishi kerak. Bunda umum ta'lif maktablarida naqqoshlik to'garaklarida o'rganganlik darajasiga alohida e'tibor berish lozim. Shundan keyingina yangi bosqichga o'tishdek ma'suliyatni o'z zimmamizga olishimiz kerak.

Xorazm viloyatidagi ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida naqqoshlik san'ati uslubini o'rgatishni tashkil qilishdan oldin, o'quvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazish lozim deb bilamiz. Chunki mahalliy naqqoshlik maktabi uslubi haqida o'quvchilarning qanchalik bilimga va ma'lumotga ega ekanliklarini bilishimiz katta ahamiyat kasb etadi.

So'rovnoma savollari quyidagi mazmunda tuzish kerak deb o'ylaymiz:

a) o'quvchilarni naqqoshlik san'atini o'rganish bo'yicha adabiyotlar, dasturlar va metodik tavsiyalarning kamligi, ayrim hollarda umuman yo'qligi;

b) mahalliy naqsh uslublari boshqa naqqoshlik maktabi uslublaridan farqli tomonlari;

v) naqsh elementlari va ularidan naqsh kompozitsiyalarini tuzish bosqichlari haqidagi ma'lumotlarni qanachalik bilishlari;

g) Xiva naqqoshlik maktabi uslubida qo'llaniladigan rangshunoslik haqida.

O'tkaziladigan tadqiqotlar natijasida biz ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida Xiva naqqoshlik maktabi fan sifatida shakllantirishning ahvoli bo'yicha quyidagilarni aniqlashimiz kerak:

1. Viloyatimizda bu yo'nalishda ixtisoslashtirilgan san'at maktablari o'quvchilari uchun yagona tizim (o'quv-metodik majmua) yaratilmaganligi sababli,

talabalar o‘rtasida Xiva naqsh uslubini o‘rganishda muammolarga duch kelinayotganligi.

2. Ixtisoslashtirilgan san’at maktablarida Xiva naqqoshlik maktabi uslubini o‘rganish imkoniyati bo‘lsada o‘rganilmayotganligi, olarning ijodkorlik faoliyatlarini cheklanib qolayotganligi.

3. Xiva naqqoshlik maktabi uslubini o‘rganish orqali o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni kasb tanlashga yo‘llash imkoniyatlari kattaligi, boshqa san’at turlari bilan bog‘liq holda fakultativ va to‘garak mashg‘ulotlarida ham keng o‘rganish zarurligi.

4. Xorazm viloyatining xususiyatlarini inobatga olib Xiva naqqoshlik maktabi uslubini o‘rganish bo‘yicha dastur, metodik tavsiyalar, topshiriqlar to‘plash va tuzish zarurligi.

Xiva naqqoshlik maktabi kursini o‘rganishga kirishayotgan o‘quvchilarga eng avvalo, oddiy naqsh elementlarini aniq chiza olishi, naqsh kompozitsiyalarini tuzish, ranglash va pardozlash qonuniyatlarini ham amaliy, ham nazariy bilim va ko‘nikmalarni shoshamdan shakllantira olishimiz kerak. Qanchalik shoshamak, o‘quvchidagi qiziqish va intilishni shunchalik so‘ndirib boramiz. Bu esa kutilgan natijaga erishishimizga halaqit berishi turgan gap.

Ko‘plab o‘quvchilar mahalliy Xiva naqqoshlik uslubi haqida chuqurroq hajmda bilamga ega bo‘lishga intilishlari yaqqol sezilmoqda. Lekin bu sohada mahalliy Xiva naqsh uslubining o‘ziga xos tomonlarini qamrab oladigan yagona o‘quv-metodik majmua yo‘qligi muammo bo‘lib turibdi. Biz o‘zimizning tadqiqotimizda yuqorida keltirilgan kamchiliklarni imkoniyati boricha bartaraf qilishga va ixtisoslashtirilgan san’at maktablarida Xiva naqqoshlik maktabi uslubini o‘rgatish imkoniyatlarini yoritib berishga harakat qildik.

Ma‘lumki, o‘quvchilardagi ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim tizimining ayrim qismining emas, balki, hamma bo‘g‘inlarining ham vazifasi hisoblanadi. Bunda o‘rta maxsus ta’lim muassasalari ham birdek mas’uldir. Shuning uchun ham biz ixtisoslashtirilgan san’at maktablarida Xiva naqqoshlik maktabi uslubini o‘qitishning metodik asoslarini tadqiq qilishimizda o‘quvchilarning shu yo‘nalish bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalarini qanday?, bu ish qanday tashkil qilingan?, darsliklar qay ahvolda?, degan mazmunda savollarga javob topishimiz zarur bo‘ladi. Ana shu savollarga javob olganimizdan keyin ixtisoslashtirilgan san’at maktablarida Xiva naqqoshlik maktabi uslubini o‘rganish zaruriyati, zarur bo‘lsa qanday hajm va mazmunda o‘rganilishi kabi savollarga javob topiladi.

Shuning uchun biz muammo tahlilini “bugunning ichidan bir bo‘lagi”ni (ixtisoslashtirilgan san’at maktablarida) ajratib olmasdan, undan oldingi qismi (umumiy o‘rta ta’lim maktablari) bilan birgalikda tahlil qilish ham kerak. Ayniqsa, bu jarayon bosqichma-bosqich bir-biriga bog‘lik holda olib borishni ta’minlashimiz alohida ahamiyat kasb etadi.

Xiva naqqoshlik maktabi uslubini o'rgatishni joriy qilishdek amaliy jarayondan kutilayotgan natijani uzoq yillarni ko'zlab amalga oshirishimiz maqsadga muvofiq. Buni qaysi yo'naliishlarda ko'rishimiz mumkin?

Respublikamizning boshqa shaharlari kabi Xiva shahrida ham turizmga keng yo'l ochilib berilmoxda. Jahonning turli mamlakatlaridan keladigan sayyoohlar ham mahalliy Xiva naqqoshlik maktabi uslubida ishlangan amaliy ishlarni so'rashadi. Bu esa mahalliy naqsh uslubida ishlangan ishlarga talabning oshib borishiga olib kelmoqda. Bundan shuni ko'rishimiz mumkin, mahalliy naqsh uslubida ishlay oladigan naqqoshlarni tarbiyalashni yo'lga qo'yishimiz zarurligi yaqqol sezilib qolmoqda.

Shunday naqqoshlarni yetkazib beradigan ixtisoslashtirilgan san'at maktablariga bugungi kunda yuqori talablar qo'yilmoqda. O'quvchilarga esa Xiva naqqoshlik maktabi uslubining vazifa va mazmunini yaxshi bilishlari, bu bilan bog'liq bo'lgan ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lishlari singdirilib boriladi. Chunki har bir naqqosh o'z yo'naliishini topa olishi, kelgusida mohir usta bo'lib yetishishiga katta yordam beradi.

Yuqoridagi barcha fikr va mulohazalarga suyangan holda Xiva naqqoshlik maktabi uslubini o'rgatishda ikki yo'naliishda, birinchi nazariy qism, ikkinchi amaliy qismdan iborat bo'lishini ta'minlashimiz oldindan isbotlangan. Biz buni yangi mahalliy naqsh an'analarini inobatga olgan holda qisqacha quyidagi metodika asosida ishlab chiqishga harakat qildik.

Ma'ruza mashg'ulotlari asosan Xiva naqqoshlik maktabining shakllanish va rivojlanish tarixi, unda qo'llaniladigan naqsh turlari, naqsh kompozitsiyalarini tuzish va ranglash, yog'och va kulolchilik buyumlarini, shuningdek, bino intererini naqshlash texnologiyasi asoslarini o'rganishga qaratiladi. Mashg'ulotlarda Xiva naqqoshlik maktabi fanining mahalliylik hususiyatlari hisobga olgan holda dars jarayonida ko'proq ko'rgazmalardan foydalanish tavsiya qilinadi (plakatlar, illyustrativ materiallar, kompyuter versiyalar, .....). Har bir namoyish qilinadiagan materiallar talabalar bilan tahlil qilinib borilishi kerak.

Amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning auditoriyada Xiva naqsh uslubida naqsh kompozitsiyalarini tuzish, ranglash va pardozlash kabi amaliy ishlarni bajarishlari shaklida tashkil qilinadi. Amaliy mashg'ulotlarda bajariladigan amaliy ishlar ro'yhati o'quvchilarning qiziqishi hamda mahalliy sharoitlarni hisobga olib, o'quv yili boshida ixtisoslashtirilgan san'at maktabi kengash yig'ilishi qarori bilan tasdiqlanadi. Bunga amaliy ishlar soni qisman qisqartirilishi ham mumkin. Shu fan o'qituvchisi auditoriyada har bir o'quvchining amaliy ishlarini nazorat qilib borib, yetarlicha kompozitsion yechimlar topilgan naqsh namunalari rag'batlantirilib boriladi.

Auditoriyada bajarilayotgan amaliy ishlar jarayonida har bir o'quvchining individual qiziqishi, Xiva naqqoshlik san'ati uslubidagi naqsh kompozitsiyalaridagi orginal yechimlarni topa olish qobiliyati, fazoviy fikrlashi kabilalar namoyon bo'ladi. O'quvchi ishini baholashda birinchi navbatda yuqoridagi xususiyatlarni e'tiborga olish zarur.

1. Булатов С.“Ўзбек халқ амалий безак санъати”. Тошкент. “Меҳнат”.  
нашиёти 1991. 284-292 бетлар
2. “Хива минг гумбаз шахри”. Муаллифлар жамоаси. Тошкент. “Шарқ”.  
1997 й. 79-81 бетлар
3. Ibadullayeva N.E. The traditions preserved in the Khorezm blue pottery schools. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research. Volume: 7 Issue: 12. December 2021. 272-275. <https://doi.org/10.36713/epra2013>